IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

DUNYONING GLOBAL MUAMMOLARIGA OID ILMIY-FALSAFIY YONDASHUVLAR

B. H. Mahmudov
O‘R HX va MU Toshkent harbiy okrug fakulteti
boshlig‘i o‘rinbosari f.f.f.d (PhD), dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.21190680

Annotatsiya. Ushbu maqolada global inqirozlarning aksariyati inson tomonidan yaratilgan texnogen inqilob mahsuli ekanligi, so‘nggi yillarda jahonning global muammolari yanada kengayib, murakkablashib borayotganligi, dunyoning global muammolari haqida fikr bildirgan mutaxassislarning qarashlari, dunyoning global muammolari - bashariyat taqdiriga daxldor, barcha xalqlar, millatlar va davlatlar manfaatlariga bevosita aloqador, umumsayyoraviy xarakterga ega ekanligi. Zamonamizning asosiy global muammolaridan - diniy radikalizm, ekstremizm va terrorizm qatoriga kirib kelgan ekologik muammolar uning o‘ziga xos xarakteri ochib berilgan, shuningdek, taxlil qilingan va ularning oldini olish bo‘yicha takliflar yoritilgan.
Kalit so‘zlar: global, global (umumbashariy) muammolar, globallashuv, yangi O‘zbekiston strategiyasi, dunyoning global muammolari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm, terrorizm, tabiiy resurslar, global ekologik inqirozlar, xalqaro tashkilotlar**.**

НАУЧНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ К ГЛОБАЛЬНЫМ ПРОБЛЕМАМ МИРА

Аннотация. В данной статье утверждается, что большинство мировых кризисов являются продуктом техногенной революции, что глобальные проблемы мира расширяются и усложняются в последние годы, приводятся мнения экспертов, высказавших свое мнение о глобальных проблемах мира, глобальные проблемы мира связаны с судьбой человечества, и отвечают интересам всех народов, наций и государств. что это напрямую связано, носит общечеловеческий характер. Среди основных глобальных проблем современности - религиозного радикализма, экстремизма и терроризма, выявлены экологические проблемы, выявлена их специфика, а также выделены анализ и предложения по их предотвращению.
Ключевые слова: глобальные, глобальные (универсальные) проблемы, глобализация, новая стратегия Узбекистана, глобальные проблемы мира, экологические проблемы, радикализм, экстремизм, терроризм, природные ресурсы, глобальные экологические кризисы, международные организации.

SCIENTIFIC-PHILOSOPHICAL APPROACHES TO THE WORLD'S GLOBAL PROBLEMS

Abstract. In this article, it is stated that most of the global crises are the product of the man-made revolution, that the global problems of the world are expanding and becoming more complicated in recent years, the views of the experts who have expressed their opinions about the global problems of the world, the global problems of the world are related to the destiny of mankind, and are in the interests of all peoples, nations and states. That it is directly related, universal in nature. Among the main global problems of our time – religious radicalism, extremism and terrorism, environmental problems have been revealed, their specific nature has been revealed, as well as analysis and proposals for their prevention have been highlighted.

Key words: global, global (universal) problems, globalization, new strategy of Uzbekistan, global problems of the world, environmental problems, radicalism, extremism, terrorism, natural resources, global environmental crises, international organizations.

Jahonda bashariyat diqqat-e'tiborini tortib kelayotgan muammolar soni va ko'lami ortib bormoqda. Texnika inqilobi, axborot-kommunikatsiya tizimlarining rivoji, iqtisodiy taraqqiyotning yuqori bosqichga chiqishi kabi ijobiy tendensiyalar amalda insoniyatning yer sayyorasida baxtli hayot kechirishiga to'la imkoniyat bermayapti. Insoniyat o'zi yaratgan ixtirolarning olamshumul ahamiyatidan zavqlanish bilan birga uning teskari oqibatlaridan aziyat chekmoqda. Aytish kerakki, global inqirozlarning aksariyati inson tomonidan yaratilgan texnogen inqilob mahsulidir. Yer yuzida farovon hayot kechirishga bo'lgan intilish natijasida inson o'z aqli va tafakkurini ixtiro va kashfiyotlarga qaratishi lozimligi angladi. Yaratilgan yangi ixtirolar esa nafaqat farovon hayotni ta'minlash, balki, inson bir-birini mavh etishga ham yo'naltirilganligi ham ma'lum bo'ldi. Bashariyatni yuksaklikka yetaklashi kutilgan qator ixtirolar global muammolarni ham keltirib chiqardi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda jahonning global muammolari yanada kengayib, murakkablashib bormoqda. Unga berilgan ta'riflar ham vaqt o'tishi bilan o'zining ahamiyatini o'zgartirib, yangi ta'riflarni keltirish ehtiyojini paydo qilmoqda. Shu o'rinda global muammolarga berilgan ta'riflarning ba'zilarini keltirib o'tishni joiz deb hisoblaymiz. Undan avval esa, "global" iborasining kelib chiqishi, lug'aviy ma'nosi, unga nisbatan ishlatilgan qarashlarni ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida "global" atamasiga quyidagicha izoh berilgan: "Global (frans. global – umumiy, lot. globus – shar) – 1) butun yer sharini qamrab oluvchi; 2) har tomonlama, to'liq, yalpi, universal"(2). Falsafa qomusiy lug'atida "Global (umumbashariy) muammolar (frans. global – eng umumiy) – o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga daxldor bo'lgan muammolardir" (3), - deyiladi. Global iborasining o'zagidan kelib chiqqan "globallashuv" tushunchasi esa so'nggi o'n yilliklarning eng ko'p muhokama qilinayotgan mavzuga aylanib ulgurdi. Bunga sabab esa globallashuv hodisasining serqirra, turlicha talqin qilishga moyil bo'lgan xarakteridir. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati"da keltirilishicha, "Globallashuv XX- asrning ikkinchi yarmi XXI- asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital tovar hamda ishchi kuch bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishini ifoda etuvchi tushuncha" (4). "Globallashuv atamasi dastlab amerikalik olim T.Levittning 1983- yili "Garvard biznes revyu" jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi. Muallif yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini shunday deb atagan"(5). Fransuz olimi B.Bandi ta'rifiga ko'ra:

- globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- globallashuv – jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- globallashuv – milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni (6).

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Insoniyat tarixining hozirgi davri va bugungi dunyo taraqqiyoti bundan 40-50 yil oldingi hayot voqeliklaridan keskin farq qiladi. Biz endilikda globallashuv jarayonlari har tomonlama avj olayotgan, butun jahonda u bilan bog'liq o'zgarish va yangilanishlar shiddat bilan sodir bo'layotgan zamonda yashamoqdamiz" (1) deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqotning ortishi, davlatlararo integratsiyaning kuchayishi, bir-biriga bog'liqlik tendensiyalarining avj olishi bevosita globallashuvning mahsulidir.

Globallashuv hodisasi haqida so‘z yuritgan mutaxassislar uning ikki xil qiyofasini ochib berishga urinishadi:

Birinchisi, globallashuv sodir bo‘lishi lozim bo‘lgan, kutilgan jarayondir. U davriy taraqqiyot tadrijiy takomilining mahsuli sifatida dunyoning yangi qiyofasini belgilab beradi va undan milliy maqsadlar va milliy taraqqiyot yo‘lida foydalanish o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Ikkinchi qiyofa esa birmuncha salbiy xarakterga ega. Unga ko‘ra, globallashuv jarayon sifatida mamlakatlar, xalqlar, millatlar o‘rtasidagi ma’naviy chegaralarni izdan chiqaradi.

Natijada millatlar o‘zining yillar davomida shakllangan til, milliy ruh, milliy o‘ziga xoslik, qadriyatlar kabi asrlar davomida shakllangan xususiyatlarini yo‘qotadi. Har ikki holatda ham global jarayonlarning tezlashuvi muqarrar bo‘lib, har bir davlat mazkur jarayonlarning salbiy xususiyatlaridan muhofazalanish va ijobiy tomonlaridan yuqori darajada foydalanish zaruratini taqozo etadi. Shunday ekan, bugungi global muammolarni o‘z vaqtida anglash, unga qarshi tura oluvi aniq vositalarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning global muammolari haqida fikr bildirgan mutaxassislarning qarashlari bir-biridan farq qilmaydi. Aksariyat nazariyotchi olimlar global mummmolar deganda insoniyatning bugungi taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi va kelajagini xavf ostiga qo‘yuvchi umumiy muammolarni ko‘rsatishadi. Quyidagi manbada keltirilgan ma’lumot fikrlarimizni tasdiqlaydi. Unga ko‘ra: “Global muammolar zamonaviy insoniyat hayotining turli sohalarining notekis rivojlanishi va odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy-tabiiy va boshqa munosabatlarida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi.

Bu muammolar butun insoniyat hayotiga ta’sir qiladi. Insoniyatning global muammolari - bu butun sayyoramiz aholisining hayotiy manfaatlariga ta’sir qiladigan va ularni hal qilish uchun dunyoning barcha davlatlarining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladigan muammolardir” (7).

Rossiyalik faylasuf olim A.Ligostayev global muammolarni insoniyat mavjudligiga tahdid sifatida baholaydi va uni faqatgina birlashib hal qilish lozim deb hisoblaydi. Olimning keltirishicha, “Insoniyatning ijtimoiy taraqqiyoti va sivilizatsiyaning saqlanishi ularning hal etilishiga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-tabiiy muammolar majmuidir. Mazkur muammolar o‘zining dinamik xarakteri bilan ajralib turadi, jamiyat taraqqiyotining obyektiv omili sifatida vujudga keladi va ularni hal etish uchun butun insoniyatning birgalikdagi sa’y-harakatlari talab etiladi. Global muammolar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, odamlar hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi va dunyoning barcha mamlakatlarini tashvishga soladi” (8).

Fikrimizcha, dunyoning global muammolari deganda - bashariyat taqdiriga daxldor, barcha xalqlar, millatlar va davlatlar manfaatlariga bevosita aloqador, umumsayyoraviy xarakterga ega, hal etilishi insoniyatning yer yuzida mavjud bo‘lishi yoki bo‘lmasligini belgilovchi muammolarga aytiladi.

XX-asr oxiri XXI-asrning boshlariga kelib mutaxassislar mavjud muammolarning xususiyati va xarakteridan kelib chiqib mahalliy, mintaqaviy va global ko‘rinishi mavjudligini ta’kidlay boshladilar. Ushbu masala haqida fikr bildirgan nazariyotchi olimlar muammolarning bunday ko‘rinishi tadrijiy mohiyat kasb etishini ta’kidlab, har qanday muammo dastavval mahalliy ahamiyat kasb etgan, vaqt o‘tishi bilan unga bo‘lgan e’tiborning sustligi va boshqa bir qancha ijtimoiy-siyosiy omillarga ko‘ra u globallashib borganligini asoslab berishdi. Eng asosiysi, vaqt o‘tishi, insoniyatning aqliy imkoniyatlari kuchayib borishi bilan bir vaqtda mintaqaviy muammolarning global tus olayotgani haqidagi chaqiriqlar ham ko‘payib bormoqda. Bu esa, global muammolarning soni ortib borayotganini bildiradi. Bugungi kunga kelib, mutaxassislar tomonidan tan olingan va hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolar quyidagilardan iborat:

Xom-ashyo va energetika resurslaridan oqilona foydalanish, ularni to‘g‘ri taqsimlash hamda kelajak avlodlarga qoldirish muammosi;

Demografik inqiroz, dunyoning qaysidir mintaqa va davlatlarida aholining keskin kamayishi hamda qaysidir hududlarda aholi sonining ortib borishi muammosi;

Oziq-ovqat ta’minoti muammolari, asosan uchinchi dunyo davlatlarida siyosiy rejimning demokratik tartibotga asoslanmagani, iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining pastligi va amaldagi islohotlarning samarasizligi natijasida paydo bo‘lib yillar davomida shakllangan nobarqaror tizim oqibatida shakllangan muammolar;

Ekologik muammolar, atrof-muhitga munosabatning salbiy xarakteri, tabiiy resurslardan nooqilona va shafqatsiz foydalanish va boshqa bir qator omillar natijasida kelib chiqqan muammolar;

Ayrim mamlakatlar o‘rtasida jahonda gegemonlikka intilish maqsadida olib borilgan qurollanish poygasi va uning natijasida paydo bo‘lgan tinchlik va barqaror taraqqiyotga tahdidlar muammosi;

Davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy notenglik va uning natijasida kelib chiqqan qochoqlar muammosi;

Koinotni o‘zlashtirishdagi raqobat va kosmik fazoni tinch maqsadlarda o‘zlashtirish muammosi;

Dunyo okeanidan foydalanish muammosi;

Diniy radikallashuv, ekstremizm, terrorizm muammolarini qayd etish mumkin.

Keltirib o‘tilgan global muammolar o‘zining global ta’sir ko‘lamiga ko‘ra tasniflangan bo‘lib, bu global muammolar fenomenini to‘liq qamrab olganligini anglatmaydi. Chunki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ayrim mintaqaviy muammolar (kasalliklar, milliy va etnik ziddiyatlar) kuchayib global ahamiyat kasb etish jarayoni tezlashmoqda. Global termini paydo bo‘lgan o‘tgan asrning ikkinchi yarmida keltirilgan global muammolarning hozirgi formati va ko‘lami kengaygan deb bemalol aytish mumkin. Masalan, 1968-yilda Italiyalik iqtisodchi, tadbirkor Aurelio Pechchei asos solgan “Rim klubi” tomonidan ko‘rsatib berilgan global muammolarning tub ildizi saqlanib qolgan bo‘lsada, uning ko‘rinishlari, shakllari kengaygan. Buning asosiy sababi – bu davlatlar o‘rtasidagi integratsiyalashuvning kuchayishidir. Ma’lumki, taraqqiyotning har qanday ko‘rinishi o‘zaro hamkorlik va integratsiyani taqozo etadi. Ushbu mavzuga qiziqish ortishiga bir qator omillar sabab bo‘ldi.

Insoniyatning global muammolari haqida fikr bildirgan mutaxassislar uning davriylik, tarixiylik tamoyillarini ham e’tirof etishadi. Masalan, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida global muammolar sifatida urushlar, yadroviy to‘qnashuvlar keltirilgan bo‘lsa, asr oxiriga borib, iqtisodiy bo‘hronlar, ekologik muammolar, atrof-muhit muhofazasi kabi mavzular kun tartibidan ko‘proq o‘rin egallaganigi kuzatish mumkin. Shveytsariyaning Davos shahrida 1971-yildan buyon muntazam o‘tkazilib kelinadigan “Jahon iqtisodiy forumi”ning 2000-yilda o‘tkazilgan yig‘ilishida global muammolar quyidagi to‘rt guruhga bo‘lib tasniflangan: “Iqtisodiy muammolar (neft, energetika taqchilligi), ekologik muammolar (biologik xilma-xillikning yo‘qolib borishi, iqlim o‘zgarishi, ichimlik suvi muammolari, havo, suv va tuproqning ifloslanishi, tabiiy ofatlar), ijtimoiy muammolar (demografik: aholining qarishi, rivojlangan mamlakatlarda aholining kamayishi, majburiy migratsiya, yuqumli kasalliklar, qashshoqlik, diniy radikalizm, diniy mojarolar, dinlararo ixtiloflarning kuchayishi) va geosiyosiy muammolar (terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, dunyoning qaynoq nuqtalari Isroil/Falastin, Hindiston/Pokiston, Iroq, Xitoy, Tayvan)” (9).

Zamonamizning asosiy global muammolaridan biri – bu diniy radikalizm, ekstremizm va terrorizm muammosidir. Ushbu masala g‘oyaviy-mafkuraviy xarakteriga ko‘ra ancha uzoq davrlarga borib taqalsada, uning tahdidli ko‘rinishlari birmuncha yangi mazmunga ega. Terrorizm haqida fikr bildirgan aksariyat mutaxassislar uning kelib chiqish tarixi asosan

dinlarning paydo bo‘lishi va shakllanish jarayoni, qolaversa, dunyoviy dinlarning turli sektalar, mazhablarga bo‘linishi natijasida paydo bo‘lganligini ta’kidlashgan. Turli diniy oqimlarning shakllanishi ularni o‘z qoidalarini yaratish orqali muayyan maqsadlarga erishish vositasiga aylangani haqiqatga to‘g‘ri keladi. Xalqaro munosabatlar tizimida eng asosiy muammolardan biri sifatida qaralayotgan terrorizm mumamosi shakllanishining quyidagi sabablari mavjud:

Uzoq muddat davom etgan milliy ixtiloflar, mintaqaviy mojarolarning (Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo) ta’sirida shakllangan diniy sektalarning paydo bo‘lishi;

Dinning radikallashuvi, undan siyosiy maqsadlarda foydalanishga bo‘lgan urinishlarning ortishi;

Ayrim siyosiy kuchlar va moliyaviy tashkilotlar tomonidan xalqaro terrorizmni g‘oyaviy rag‘batlantirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va jahonda kuchlar nisbatini buzishga bo‘lgan urinishlar;

Davlatlar o‘rtasida xalqaro terrorzimga qarshi kurashning yakdillik, hamfikrlik tamoyillariga asoslanmaganligi;

Dunyoviy dinlarning oqim va mazhablarga bo‘linishi, yangi diniy qoidalarni yaratish va realizatsiya qilishga bo‘lgan urinishlarning kuchayishi;

Ayrim radikal kuchlar tomonidan uchinchi dunyo davlatlarida iqtisodiy qaram qilishning asosiy vositasi sifatida diniy e’tiqodga jalb qilishga bo‘lgan urinishlarning kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Dunyo global muammolari qatoriga kirib kelgan ekologik muammolar o‘ziga xos xarakteri bilan ajralib turadi. Mutaxassislarning qayd etishicha global ekologik muammolar insoniyat hayotining barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan. Uning o‘ziga xosligi shundaki, urushlar, qurollanish, yadroviy tahdid, terrorizm kabi birdan o‘zining qiyofasini namoyon qlmasligi mumkin. Biroq vaqt o‘tishi bilan uning ta’siri ko‘rsatilgan muammolarga qaraganda ko‘proq jiddiy tahdidni vujudga keltiradi. Qator manbalar tahlilidan kelib chiqib, global ekologik muammolarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Mavjud o‘simlik va hayvonot dunyosi yo‘q qilindi va ushbu tedensiya jadal davom ettirilmoqda;

Sayyoramizda biosfera mavjud bo‘lishining asosiy sharti hisoblanmish kislorod miqdori kamayib bormoqda. Buning bosh sababi o‘rmonlarning shafqatsiz yo‘q qilinishidir;

Tabiiy resurslarni o‘zlashtirish jadallik bilan ta’bir joiz bo‘lsa, ko‘r-ko‘rona olib borilmoqda;

Kosmik fazoni o‘zlashtirish vaji bilan amalga oshirilayotgan hatti-harakatlar natijasida ozon qatlamining yemirilishi, havoning ifloslanishi kuchayib bormoqda.

Global ekologik inqirozlarning ikki asosiy sababi mavjud bo‘lib, birinchisi insoniyatning ko‘payishi natijasidagi tabiiy talab bo‘lsa, ikkinchisi, tabiatga bo‘lgan antigumanistik munosabat bilan bog‘liqdir. Birini sababni YE.Avdokushin quyidagicha izohlaydi: “Aholi portlashi - aholining davriy, keskin ko‘payishi 60-70-yillarga xos edi. Bu esa endilikda ochiq o‘zining natijasini ko‘rsatmoqda. Dunyo aholisining tez o‘sishi insoniyatning boshqa barcha global muammolari uchun o‘ziga xos poydevor yaratdi, chunki qancha odam ko‘p bo‘lsa, hududga qanchalik katta yuk bo‘lsa, shuncha ko‘p oziq-ovqat va tabiiy resurslar talab qilinadi” (10). Masalaning ikkinchi sababini esa S.Mamashokirov “Tabiatning ifloslanishi, uning boyliklaridan foydalanishda ro‘y berayotgan shafqatsizlik faktlariga, insonning xo‘jalik va moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlari o‘sishi emas, balki biosfera ekologik muvozanat qonunlarini bilmasligi, savodsizligi hamda madaniyatsizligi asosiy sabab bo‘lmoqda” (11), deb hisoblaydi. Har ikki muallifning ham fikrlarini qo‘llab quvvatlagan holda, global ekologik inqirozning jiddiy oqibatlarini bartaraf etish davrimizning muhim masalalaridan deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, global muammolar global inqirozlarni keltirib chiqarishi ayni haqiqat bo‘lib bu vaqt masalasidir. Ertami-kechmi insoniyat global muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etmagani, ularning oldini olmagani, e’tiborsizligining global ta’sirini o‘z

boshidan kechiradi. Mazkur jarayon bugun ham o‘z bo‘yini ko‘rsatmoqda. Masalan, so‘nggi yillarda avj olayotgan pandemiya, ixtiloflar, demografik inqiroz kabi holatlarning ko‘payib borayotgani insoniyat uchun chaqiriq vazifasini bajarishi lozim.

Global muammolarning tahdidli ta’sirini kamaytirish, bartaraf etishga doir tahlillar quyidagi vazifalarni shartlab qo‘yadi:

Birinchidan, har qanday global muammo integrativ xarakterga ega bo‘lib, uni hal etishda integratsiyalashuv qonuniyatlarini o‘zlashtirish, davlatlar, xalqaro tashkilotlarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasida ijobiylik kasb etishi mumkin;

Ikkinchidan, mavjud lokal, mintaqaviy muammolarning global ko‘lam kasb etishi muqarrarligini anglash, unga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, muammolarga muayyan mintaqa nazari bilan emas balki, bashariyat nuqtai-nazari bilan qarash masalani oydinlashtiradi;

Uchinchidan, global muammolarning umumsayyoraviy ta’sirini aniqlashga qaratilgan forumlar, anjumanlar o‘tkazish orqali mutaxassislarning taklif-tavsiyalarini aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish muammoning yechimiga bo‘lgan masalalarga oydinlik kiritadi;

To‘rtinchidan, xalqaro tashkilotlar, yirik xalqaro moliyaviy muassasalar tomonidan insoniyatni global tahdidlardan asrashga doir tadqiqot grantlarini muntazam e’lon qilishi, yirik ilmiy loyihalarni moliyalashtirishi natijasida aniq tahlillar va amaliy natijalarni qo‘lga kiritish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Мирзиёев. Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент.: O’zbekiston нашриёти 2021. Б-378.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. 3. – Тошкент.:«Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» нашриёти. 2002. – Б. 39.
3. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2010. Б-119.
4. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. – Тошкент.:Маънавият, 2006. – Б. 8.
5. Milliy Istiqlol g‘oyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. Mas’ul muharrir I.Ergashev. – Toshkent.:Akademiya, 2005. – B. 81.
6. Фалсафа: Қомусий луғат. – Тошкент.:Шарқ, 2004. – Б. 92.
7. Листогаев А.Г. Глобальные проблемы современности. https://prepod.nspu.ru/mod/page/view.php?id=143597&forceview=1.
8. Глобальные проблемы современности. https://www.grandars.ru/college/filosofiya/problemy-sovremennosti.html.
9. Андрианов В.Д. Россия в мировой экономике. М.:2002. С-79.
10. Мамашокиров Саидмурод. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Тошкент. “Iqtisod-moliya” нашриёти. 2012. Б-3.
11. Авдокушин. Е.Ф. Международные экономические отношения. М.:2014. С-134.